

POYKENT ARXEOLOGIK YODGORLIGINI MUZEYLASHTIRISHGA DOIR ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR TARIXI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro vohasida kechgan tarixiy jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etgan, antik va ilk o'rta asrlar davri yirik shahari Poykent tarixi, hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va uni muzeylashtirishning tarixiy asoslari borasida gap boradi.

Kalit so'zlar: Buxoro vohasi, Poykent, arxeologik tadqiqotlar, moddiy madaniyat, muzey.

HISTORICAL BASIS OF MUSEUMIZATION OF THE POYKENT ARCHAEOLOGICAL MONUMENT

Annotation. This article discusses the history of Poykent, a large city of antiquity and the early Middle Ages, which played an important role in the historical processes of the Bukhara oasis, archaeological research conducted in the area, and the historical foundations of its museology.

Keywords: Bukhara oasis, Poykent, archaeological research, material culture, museum.

ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МУЗЕИЗАЦИИ АРХЕОЛОГИЧЕСКОГО ПАМЯТНИКА ПОЙКЕНТ

Аннотация. В статье рассматривается история Пойкента — крупного города древности и раннего средневековья, сыгравшего значительную роль в исторических процессах, происходивших в Бухарском оазисе, археологические исследования, проводившиеся на этой территории, а также исторические основы его музеефикации.

Ключевые слова: Бухарский оазис, Пойкент, археологические исследования, материальная культура, музей.

Manbalarda qayd etilishicha Buxoro vohasi hududida Zarafshon dayosidan 35 ta kanal va suv havzalari bosh olgan[1]. Shu kanallar vohada yuksak rivojlangan shaharlarni vujudga keltiradi. Bular orasida hozirgi kunda Buxoro shahridan oltmish chaqirim janubiy - g'arbda Qorako'l tumanining SHO'rabod MFY hududida joylashgan - Poykent shahri diqqatga sazovor.

Poykent haqida juda ko'plab yozma manbalarda malumotlar uchraydi. Masalan, xitoy yilnomalarida Poykent Bi nomi bilan, arabnavislarning asarlarida yesa Madinit ut-tujjor yani "Savdogarlar shahri" nomlari bilan shuhrat qozongan. Poykent aholisining asosiy qismi savdogarchilik bilan shug'ullangan. Poykent Karvonlar uchun toxtash va savdo qilish joyi hisoblangan. Shuning uchun ham Poykent aholisi juda boy hisoblangan. Poykentning haqiqiy tarixini yaratishda arxeologik tadqiqotlar juda muhim hisoblanadi.

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra bu hududda bronza davridan boshlab insoniyat yashay boshlagan. Poykentning asosiy suv manbailari Qashqadaryo va Zarafshon daryosining irmoqlari isoblangan. Miloddan avvalgi V - III asrlarda insonlar bu hududda gavjumlasha boshlagan. Xuddi shu davrdan boshlab shahar qad ko'tara boshlagan. Bu vaqtda shahar maydoni 1 ga ni tashkil etgan. Poykent noto'g'ri to'rtburchak shaklga ega bo'lib, eng qadimiy qismi ark qismidir. U miloddan avvalgi IV - III asrlarda barpo etilgan. Milodiy V - VI asrlarda Shahrison I, VI -VII asrlarda esa Shahrison II barpo qilingan. Poykent shahri V - VI asrlarda o'z taraqqiyotining yuqoriga bosqichiga ko'tarilgan, bu davrda Poykent shahri rabotlar hisobiga kengaytirilgan[2]. Narshaxiy yozishicha Poykentda mingdan ortiq rabot bo'lgan[3].

Arxeologik tadqiqotlar natijasida Poykentning Ark qismidan antik va ilk o'rta asrlarga

taaluqli quvurlar, Shahrison II hududidan esa tashnaular topilganligi Poykentda kamunal jarayonlar yaxshi yo'lga qoyilganligi ko'rishimiz mumkin. XI asr o'rtalariga kelib Buxoro vohasining g'arbiy qismlarida suv tanqisligi kuzatiladi. Natijada Poykent hududiga suv bormay qoladi, shu tufayli shaharda hayot to'xtaydi[4].

1913-yilda L.A. Zimin tomonidan Poykant/Poykent shaharchasining ilk arxeologik tadqiqotlari boshlanadi[5]. 1939-1940-yillarda esa shaharchani Rossiyaning Ermitaj muzeyining ilmiy xodimi A.Y. Yakubovskiy[6] va V.A. Shishkin[7] kabi tadqiqotchilar o'rganadilar.

Shaharchada muntazam qazishmalar va tadqiqotlar XX asrning 1980-yillarida O'zFA Arxeologiya institutining yetakchi ilmiy xodimlari A.R. Muxammadjonov va D.I. Mirzaaxmedovlar tomonidan Ermitajning ilmiy xodimi G.L. Semenov ishtirokida o'tkazildi[8]. Ko'p yillik qadimshunoslik tadqiqotlar natijalari 1999-yildan boshlab chiqib turadigan Buxoro qadimshunoslik ekspeditsiyalari materiallarida umumlashtirilgan[9].

Shaharcha reja bo'yicha turli vaqtda mansub bir qancha qismlardan iborat. Shulardan eng qadiymisi 90x90 m o'lchamdagi ark hisoblanadi, u shaharchaning boshqa qismlaridan deyarli 10 m ko'tarilib turadi. III-IV asrlarda devor reja bo'yicha o'qsimon shinaklari bo'lgan bir-biridan 12 m uzoqlikda joylashgan minoralar ega bo'lgan. Minoralar o'qsimon yo'laklar bilan tutashtirilgan. V asrda arkning dastlabki istehkomlariga shimoli-sharq tomondan yangi devorlar qurilgan bo'lib, ular ham tirqishsimon shinaklari bo'lgan to'rtburchak minoralar bilan mustahkamlangan[10].

Shaharcha tor va uzun mahallarga bo'lingan. Ko'chalari chog'roq bo'lgan, holbuki, ayrim joylarda ularning eni 3,5 m gacha yetgan. Shaharchaning turli qismlarida qo'yilgan asoslar shahar bu yon ko'chalarning joylashuvi o'zgarmaganligini bildiradi. Shahrison hududida ko'chaga chiquvchi bir yoki ikki yo'lakli uchtdan-sakkiztagacha bo'lgan imoratlar topildi. Uylarning me'moriy rejasida aksariyat xonalarni o'zaro va ko'cha bilan bog'lovchi uzun yo'laklar tizimidan foydalanilgan[11].

Arkning shimoli-sharqiy qismida olib borilgan qazishmalarda to'rt marotaba qurilish davrini boshidan o'tkazgan zardushtiylar ehromi binosi ochilgan. U oltita yo'lak bilan qurshalgan ikkita markaziy xonadan iborat bo'lgan[12].

1990-2000-yillarda istehkomda olib borilgan qazishmalar jarayonida arkda uchta yonib ketgan xona topildi. Ulardan biri, ya'ni "Naqshu nigori xona" nomini olganida buxorxudotlar xazinasini va yashirib qo'yilgan qurol-aslaha omborxonasi topildi. Qurol-aslahalar bilan birgalikda muhr nishonli osma sopol yorliqlar, buxorxudotlarning kumush tangasi, sopol idishlar topildi. Xonalar VII-VIII asrlar boshida qurilgan deb taxmin qilinadi[13].

VIII asrga oid dorixona binosi noyob topildi hisoblanadi. Qadimshunoslar suyuqlikni tozalash va haydash usqunasi tarkibiga kiruvchi o'rta asr retort (kimyoviy tajribada ishlatiluvchi noksimon, naychali idish) lari xilidagi maxsus kimyoviy idishlar - alembiklarni, mum qoldiqli, muolajada ishlatiladigan mis tovoqcha, arab yozuvli nishtarlar, qo'plab tanga va boshqa buyumlarni topdilar.

Shahar tashqarisiga chiqarib yuborilgan sopolchilar mahallasi hududida olib borilgan qazishmalar chog'ida ko'plab qiziqarli narsalar topildi. Islimi, handasaviy va hayvonot naqshli sopol qoliqlar, yashil sirlangan idishlar alohida qiziqish uyg'otadi. Idishlarga gul solish uchun yopishtirma sopol qoliqlar va burama gulto'p, doira, uchburchak, archa, yulduz, chekma, xoch, uchquloq, gul, bodom tasvirli ko'plab qoliqlar topildi. Yuqori qismida hayvonlar, ehtimol og'zini ochib, dumini qisib turgan it yoki arslon tasvirli qolip qiziqarlidir[14].

Mustaqillik davridan boshlab O'zbekiston-Rossiya qo'shma ekspeditsiyasi (Davlat Ermitaji) Buxoro vohasida - Poykend shahar xarobasida ish olib bormoqda. Ko'p yillik izlanishlar natijasida arkda zardushtiylar ibodatxonasi ochildi (eramiz boshlari - VIII asr). Bular qatoriga yana muhim yangilik sifatida bu ekspeditsiya a'zolari kovlab ochgan va O'rta Osiyoda islomni ilk davriga oid machit hamda minorani keltirish mumkin[15]. Eng muhimi va ibratli tomoni bu ekspeditsiya yillik hisobotlarini muntazam nashr etishni boshlab yubordi[16].

O'zbekiston - Rossiya xalqaro ekspeditsiyalarining Buxoro viloyatidagi Vardonze, Poykend, Uch kuloh yodgorliklarida olib borilgan qazuv ishlari natijasida qo'lga kiritilgan noyob

76 topilmalar arxeologiya mavsumining ilmiy yangiliklari sifatida e'tirof etildi[17].

Buxoro muzey-qo'riqxonasi jamlamalarida Poykand shaharchasidan keltirilgan 10 mingdan ortiq buyum saqlanmoqda. Bu buyumlar katta tarixiy va badiiy qiymatga ega va ulardan ilmiy-tadqiqot va o'quv-ma'rifiy jarayonlarda foydalanish mumkin.

Shu bois Poykand shaharchasiga tutash xududda shaharcha tarixi muzeyini tashkil etish haqida qaror qabul qilindi. Uning tashabbuskorlari Buxoro muzey-ko'riqxonasi va O'zFA Arxeologiya instituti bo'ldi, Buxoro viloyat va Qorako'l tuman hokimiyati, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi qo'llab-quvvatlashga ahd qildilar. Loyihani amalga oshirish bo'yicha amaliy ishlar 2000-yilda boshlandi.

Poykanddagi muzey bisoti qadimiy shaharchaning u barpo bo'lgan 16 asr davomidagi qiyofasini tiklab beradi. Muzey namoyishxonasi uch tanobiy uy va shaharcha chizma manzaradan iborat.

Birinchi tanobiyda - Poykandning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixi - pul muomalasi, yozuv, tibbiyot, hunarmandchilik buyumlari qo'yiladi. Eng qiziqarli buyumlar: VI-VII asrlarga oid arslon tasvirli sopol muhr nusxasi, VII-VIII asrlarga oid bezak sopol sharafa, X-XI asrlarga oid sirkori sopol qoliplar, X asrga oid, qorniga «Yeganingiz osh bo'lsin» deb arab tilida tilak yozilgan ko'zacha, XII asrga oid arslon tasvirli suv ko'za, IX-X asrlarga oid zargarlik bezaklari, V-VIII asrlarda Poykand dorixonasida ishlatilgan shisha idishlar, xitoy va yapon chinnisi, tangalar.

Ikkinchi tanobiyda - harbiy san'at bilan bog'liq buyumlar namoyish etilmoqda, bular II-VII asrlarda sug'd jangchilari aslahasida ishlatilgan o'q-yoy uchlari (payk), islomgacha davrdagi dinlar bilan bog'liq ashyolardir. Ushbu tanobiy bisotidagi buyumlar quyidagilar: o'tirgan iloh tasvirli sopol muhr nishonasi, tutatqi jez idishi, V-VIII asrlarga oid sopol buyumlar, idish yasashga sopol qoliplar to'plami, suzma (elakcha)li sut xurmachasi va h.k.

Uchinchi tanobiyda - XI asrga oid me'moriy bezak bo'laklari, tok zangi tasvirli manzara, guldor mehroblar, V-VIII asrlarga oid bolari tasvirli muhr, ikkilamchi kuydirish o'chog'i, IX-X asrlarga oid bolalar o'yinchoq pari, XI asrga oid jez jinchiroq, nardlar namoyish etilmoqda.

Tanobiyning alohida qismini shaharcha manzarasi egallagan, unda Poykandda olib borilayotgan qadimshunoslik qazilmalari gavdalantirilgan.

Ko'rgazmaning yana bir tanobiysi qadimshunoslik mavsumi tugashi bilan yangilanadigan yillik topilmalarga moslashtirilgan.

Poykand shaharchasini muzeylashtirish O'zbekiston Respublikasining «Madaniy meros inshootlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi 2001-yilda qabul qilingan Yangi Qonunini amalga oshirishda muhim bosqich hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мухаммаджонов А.Р. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи. – Тошкент, 1972.
2. Семенов Г.Л. Структура Согдийского города раннего средневековья. – Тошкент, 1994. -Б. 166-167.; Очилов А.Т. Пойкандда олиб борилган археологик тадқиқодлар тарихидан//Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача).Бухоро, 2019. Бухоро. Б.129-134.
3. Наршахий. Бухоро тарихи. –Тошкент, 1993.-Б.8.
4. Альмеев Р.В. Древний Пойкент резиденция правителей Бухары. –Тошкент, 2002. –Б.8.
5. Зимин Л. А. Развалины старого Пайкенда/ПТКЛА. Год 17. Ташкент, 1913; Зимин Л. А. Развалины старого Пайкенда в их современном состоянии// ПТКЛА. Год 18. Вып. 2. Ташкент, 1914; Зимин Л. А. Отчет о летних раскопках в развалинах старого Пайкенда// ПТКЛА. Год 19. Ташкент, 1915.
6. Якубовский А. Ю. Археологическая экспедиция в Зарафшанскую долину в 1934 г. (Из дневника начальника экспедиции). ТОВЭ. Т. II. Л. 1940. стр. 113-164.

7. Шишкин В. А. Археологические работы 1937 г. В Западной ЧАСТИ Бухарского оазиса. Изд. УзФАН. Ташкент. 1940.
8. Мухамеджанов А.Р., Г. Л. Семенов. Исследование городских стен Пайкенда (результаты работ 1981 г. на шахристане П). История материальной культуры Узбекистана. Вып.19. Изд. "ФАН". Ташкент. 1990. с.130.
9. Материалы Бухарской Археологической Экспедиции (МБАЭ) // Вып. II. Раскопки в Пайкенде в 2000 г. СПб., 2001; Раскопки в Пайкенде в 2003 г. Материалы Бухарской археологической экспедиции (МБАЭ). Вып. V. СПб., 2004; Раскопки в Пайкенде в 2004 г. Материалы Бухарской археологической экспедиции (МБАЭ). Вып. VI. СПб., 2005.
10. Мухамеджанов А.Р., Г. Л. Семенов. Исследование городских стен Пайкенда (результаты работ 1981 г. на шахристане П). История материальной культуры Узбекистана. Вып.19. Изд. "ФАН". Ташкент. 1990. с.130.
11. Мухамеджанов А.Р., Адылов Ш.Т., Мирзаахмедов Д.К., Семенов Г.Л. Городище Пайкенд. Ташкент, 1988.
12. Мухамеджанов А. Р., Мирзаахмедов Д., Адылов Ш. Т. Новые данные к истории городища Пайкенд (по материалам раскопок 1981 г.). История материальной культуры Узбекистана. Вып.19. Изд. "ФАН". Ташкент. 1990. с.95.
13. Мирзаахмедов Д.К., Адылов Ш.Т. Предварительные результаты археологических исследований на рабаде 4 городища Пайкенд // Города и каравансарай на трассах Великого шелкового пути. Ургенч, 1991; Семенов Г.Л. Святилище в Пайкенде // Эрмитажные чтения 1986-1994 годов памяти В.Г. Луконина. СПб., 1995; Материалы Бухарской Археологической Экспедиции (МБАЭ) // Вып. II. Раскопки в Пайкенде в 2000 г. СПб., 2001; Семенов Г.Л., Мирзаахмедов Д.К. Раскопки в Пайкенде. Археологические исследования в Узбекистане. 2001. Ташкент. 2002. С.138; Мирзаахмедов Д.К., Семенов Г.Л., Малкиель И.К., Бехтер А.В., Сапаров Н., Абдуллаев Б., Торгоев А.И. Исследования в Пайкенде в 2002 г. Археологические исследования в Узбекистане. 2002. Вып.№3. Ташкент. 2003; Семенов Г. Л. Базары Пайкенда. Центральная Азия от ахеменидов до тимуридов. Археология, история, этнология, культура. Материалы международной научной конференции, посвященной 100-летию со дня рождения Александра Марковича Беленицкого. Санкт-Петербург, 2-5 ноября 2004 года. - Санкт-Петербург. 2005. -С.303.
14. Дьяконов М. М. Керамика Пайкенда. КСИИМК, XXVIII, 1949, стр. 89-93; Омельченко А.В. Керамика Пайкенда конца III–IV в. Древние цивилизации на Среднем Востоке. Археология, история, культура. (Материалы международной научной конференции, посвященной 80-летию Г.В. Шишкиной). – Москва, 2010. - С. 80.
15. Семенов Г.А., Мирзаахмедов Д.К. Раскопки в Пайкенде в 1999 году. Материалы Бухарской археологической экспедиции, вып. I. - Санкт- Петербург, 2000; Омельченко А.В. К изучению храма на цитадели Пайкенда. История материальной культуры Узбекистана. - Вып.36. - Ташкент. Изд. "ФАН". 2008. -С.85
16. Широных Т.Ш., Матбобоев Б.Х. Мустақиллигимиз 10 йиллигида Ўзбекистон археологияси. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2000-йил. Самарқанд. 2001. 10 бет
17. Раҳимов К.А., Саидов М.М. "Ўзбекистон республикаси ҳудудида 2010 йилда ўтказилган археология тадқиқотлари натижаларига бағишланган ҳисобот сессияси" йиғилиши ҳақида Самарқанд, 31 март - 1 апрел 2011 йил// O'zbekiston arxeologiyasi. №1 (2) -2011. 145 б.